

SO‘NGGI YILLARDA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI BO‘YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Mardonov Ravshan Xalil o‘g‘li

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston miiliy pedagogika universiteti

Harbiy ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Jonimqulov Fazliddin Tojiddin o‘g‘li

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston miiliy pedagogika universiteti

Harbiy ta‘lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so‘ngi yillarda Respublikamizda Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik tizimida olib borilayotgan islohotlar samardorligiga muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar : *CHQBT, yoshlar, jasorat, rahbar, ta‘lim, pedagog.*

KIRISH

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik (ChQBT) fani O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida yoshlarni harbiy xizmatga ongli, jismonan va ma‘naviy jihatdan tayyorlashga qaratilgan muhim fanlardan biridir. Ushbu fan orqali o‘quvchilarda Vatanga sadoqat, fuqarolik mas‘uliyati, jamoada ishlash ko‘nikmalari hamda favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish malakalari shakllantiriladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi va ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida ChQBT faniga ham alohida e‘tibor qaratildi.

1. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANINI TAKOMILLASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta‘lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi 591-son qarori qabul qilinib, Mazkur Nizom umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim hamda boshlang‘ich professional ta‘lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda — ta‘lim muassasalari) chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni (keyingi o‘rinlarda — CHQBT) tashkil etish tartibini belgilaydi. Quyida mazkur qarorga muvofiq muhim jihatlarni ko‘rib chiqamiz.

CHQBT chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining 10-11-sinf o‘quvchilari, o‘rta maxsus hamda boshlang‘ich professional ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi o‘quvchi-yoshlar (keyingi o‘rinlarda — o‘quvchilar) bilan o‘tkaziladi.

CHQBT rahbarlarini tanlash va lavozimga tayinlash: CHQBT rahbari tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limi tavsiyasiga ko‘ra ta‘lim muassasasi direktori tomonidan ishga qabul qilinadi va ishdan bo‘shatiladi, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiradigan vazirlik va idoralar tizimidagi ta‘lim muassasalari bundan mustasno. Ishga qabul qilinayotgan nomzodning

ma'lumoti, harbiy, jismoniy va pedagogik tayyorgarligining saviyasi, shuningdek, tashkilotchilik qobiliyati hamda uslubiy ko'nikmalari puxta shakllangani hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi²⁵ CHQBT rahbari lavozimlari qonunchilikda belgilangan tartibda to'ldiriladi.

CHQBT rahbari lavozimiga oliy ta'lim muassasalari harbiy ta'lim fakultetlarining "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishini tamomlagan yoki Qurolli Kuchlar rezervidagi oliy ma'lumotga ega bo'lgan oddiy askarlar, serjantlar, shuningdek, ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tayinlanadi, O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlangan shaxslar, davlat sirlaridan foydalanishga doir ruxsatnomadan mahrum qilingan yoki harbiy xizmatchi nomiga dog' tushiruvchi xatti-harakatlar sodir etgani natijasida harbiy xizmatdan bo'shatilganlar bundan mustasno.

Ta'lim muassasalari CHQBT rahbarlarining malakasini oshirish, ularga malaka toifasini va navbatdagi harbiy unvon berish.

Ta'lim muassasalaridagi CHQBT rahbarlarining malakasini oshirish orqali ularning fanga oid bilim va malakalari mustahkamlanib, sohadagi yangiliklar yetkaziladi.

Ta'lim muassasalaridagi CHQBT fani o'qituvchilarining malakasini oshirish orqali ularning fanga oid bilim va malakalari mustahkamlanib, sohadagi yangiliklar yetkaziladi.

CHQBT rahbarlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash oliy ta'lim muassasalarining "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" ta'lim yo'nalishida mutaxassislar tayyorlovchi harbiy ta'lim fakultetlarida tashkil etiladi. Malaka oshirish davomida CHQBT rahbarlari bilan tasdiqlangan dastur asosida umumkasbiy va mutaxassislik bo'yicha fanlardan nazariy hamda uslubiy mashg'ulotlar o'tkaziladi. CHQBT rahbarlarini malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlari tizimida ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan aniqlanadi hamda buyurtmalar shakllantiriladi.

CHQBT rahbarlari har besh yilda kamida bir marta malaka oshirish kurslariga jalb etiladi. Ilgari malaka oshirishdan o'tmagan va ishga yangi qabul qilingan CHQBT rahbarlariga yoki birinchi bor ishga kirgan CHQBT rahbarlari kasbiy faoliyatiga uch yil to'lgandan so'ng malaka oshirishga jalb etiladi.

Malaka oshirishdan o'tgan CHQBT rahbarlariga tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda malaka toifalari beriladi. Zaxiradagi va rezervdagi harbiy unvonga ega bo'lgan CHQBT rahbarlariga rezervdagi harbiy unvon O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan tartibda beriladi. Shuningdek mazkur qarorda Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini tashkil etish bo'yicha barcha ma'lumotlar berilgan.

Mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-noyabrdagi "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 591-son qarori.

totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, ularning barcha yo‘nalishlarda bilim va ko‘nikmalarini oshirish, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida:

2024-yil 15-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-393-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda Mudofaa vazirligi tomonidan biriktirilgan ta‘lim tashkilotida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy kasbga yo‘naltirish, harbiy-sport musobaqalari va CHQBT fani mashg‘ulotlarini tashkil etish; o‘quvchi-yoshlarni harbiy ta‘lim muassasalariga saralash ishlarini olib borish; “Vatan tayanchi” otryadi faoliyatini boshqarish hamda harbiy qism va poligonlarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, “Jasorat maktablari” umumta‘lim maktablari uchun harbiy vatanparvarlik yo‘nalishida tayanch maktab etib belgilanadi.

“Jasorat maktablari”da:²⁶ matematika, CHQBT, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘qitiladi; o‘qish uchun o‘quvchilarni saralash beshinchi sinfdan boshlab amalga oshiriladi; robototexnika, kelajak o‘yinlari, tibbiy tayyorgarlik, huquqiy savodxonlik, milliy sport o‘yinlari kabi to‘garak mashg‘ulotlari o‘tkaziladi; o‘quv yili davomida ikki marta harbiy poligonlarda, har chorakda bir marta harbiy qismlarda amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. “Jasorat maktablari”ga biriktiriladigan. Qolaversa ushbu qarorga muvofiq Shunday tartib o‘rnatildiki, unga muvofiq:

Ta‘lim tashkilotlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga (3 — 6 yosh) oila, Vatan, milliy qadriyatlar haqidagi ilk tushunchalar o‘rgatiladi;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga (1 — 4-sinf) mustaqillik tushunchasi, davlat ramzlariga hurmat va intizom kabi hayotiy ko‘nikmalar singdiriladi;

O‘rta sinf o‘quvchilarida (5 — 9 sinf) huquqiy ong, milliy g‘urur, buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lish tuyg‘usi shakllantiriladi;

Yuqori sinf o‘quvchilarida (10-11-sinf) harbiy xizmatga qiziqish va Qurolli Kuchlar bilan faxrlanish tuyg‘usi kuchaytiriladi;

Shuningdek : CHQBT rahbarlariga ta‘lim tashkiloti o‘qituvchisining bazaviy tarif stavkasi bilan birga tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limlari fuqaro xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash, ustama haq, qo‘shimcha to‘lov, rag‘batlantirish va moddiy yordam ko‘rsatish shartlari ham tatbiq etiladi.

Mazkur qaror ChQBT fanining mazmuni, tashkiliy asoslari va amaliy yo‘nalishini tubdan yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, unda yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning uzluksiz tizimini yaratish vazifasi belgilangan. Qarorga muvofiq, umumta‘lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, shuningdek,

²⁶2024-yil 15-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-393-son qarori.

maxsus harbiy yo‘nalishga ega “Jasorat maktablari”ni tashkil etish belgilandi. Ushbu maktablar yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, intizomi va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘QUV JARAYONIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

So‘nggi yillarda ChQBT fanining o‘quv dasturi qayta ko‘rib chiqildi va zamonaviy talablar asosida boyitildi. 2025/2026-o‘quv²⁷ yilidan boshlab fan haftasiga 2 soat hajmida o‘qitilishi belgilandi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun qo‘shimcha amaliy mashg‘ulotlar joriy etildi. O‘quv jarayoniga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, saf va jismoniy tayyorgarlik mashqlari, boshlang‘ich harbiy bilimlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar kiritildi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Islohotlar doirasida ChQBT fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq, o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari, qayta tayyorlash dasturlari tashkil etildi. Bundan tashqari, ko‘plab ta‘lim muassasalarida harbiy-sport maydonchalari, o‘quv qurollari, trenajyorlar bilan ta‘minlash ishlari olib borildi. Bu esa mashg‘ulotlarning sifatini oshirish va o‘quvchilarning faniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan islohotlar natijasida ChQBT fanining ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar orasida harbiy xizmatga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllanib, ularning jismoniy tayyorgarligi va intizomi yaxshilandi. Amaliy mashg‘ulotlar yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va mas‘uliyatni his etish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa kelajakda ularning jamiyatda faol va mas‘uliyatli fuqaro bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda ChQBT fani bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, o‘quv dasturlarining yangilanishi va moddiy-texnik bazaning yaxshilanishi fan samaradorligini oshirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-noyabrdagi “Ta‘lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi 591-son qarori.

2. 2024-yil 15-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-393-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi rasmiy web sayt ma‘lumotlari.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi rasmiy web sayt ma‘lumotlari.